

PSIXOLOGIYANING IJTIMOIIY HAYOTIMIZDAGI O'RNI

Andijon davlat pedagogika instituti

Vb dotsenti **O'.T.Vaxabova**

filologiya fakulteti talabasi

Nurmuhammedova Iroda Umidbek qizi

Andijon davlat pedagogika insituti filalogiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologiyaning inson hayotiga ta'sir qilish darajasi, biologik va sotsial vaziyatlarda insonning irodaviy xususiyatlari va boshqa bir qancha psixologik xususiyatlari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Psixologiya, psixik faqlar, psixologik metodlar, tafakkur, pedagogik psixologiyasi.

Abstract: This article highlights the level of influence of psychology on human life, volitional characteristics of a person in biological and social situations and a number of other psychological characteristics.

Key words: Psychology, psychological facts, psychological methods, thinking, educational psychology.

Аннотация: В данной статье выделен уровень влияния психологии на жизнь человека, волевые характеристики человека в биологических и социальных ситуациях и ряд других психологических характеристик.

Ключевые слова: Психология, психологические факты, психологические методы, мышление, педагогическая психология.

Hozirgi jadallashib borayotgan bir zamoda psixologiya har bir inson uchun muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham psixologiyani uch yuzdan ortiq sohalari mavjud. Hozirgi vaqtda ko'pchilik insonlar psixologiyani bilishi va shu bilan birga ma'lum darajada psixologik bilimlardan va psixologik o'zgarishlardan xabardor. Masalan, ijtimoiy muhitdagi har bir inson psixologik ma'lumotlarni har xil internetdan, gazeta va jurnallardan, psixologik kitoblardan olishi mumkin. Shu o'rinda psixologiya so'ziga tarif berib o'tsak, psixologiya so'zining lug'aviy ma'nosi grekcha "psyuxe"-jon, ruh; "logos"- fan degan ma'noni bildiradi. Psixologiya fan sifatida psixik faktlar, ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganadi.[1] Psixologiya asosan psixikani keng doirada tadqiq qiladi. Shunga kora psixikani yuzaga keltiruvchi asosiy psixik faoliyatlari ko'rsatilgan. Aynan psixik faoliyatlar quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xayol, xotira va tafakkur; Bilish faoliyatlari: diqqat, nutq jarayonlari. Shaxsning hissiy, irodaviy sohasi: hissiyot, iroda; Shaxsning individual psixologik qobiliyaHozirgi vaqtda ko'pchilik insonlar psixologiyani bilishi va shu bilan birga ma'lum darajada psixologik bilimlardan va psixologik

o'zgarishlardan xabardor bo'lishalari mumkin.[2] Masalan, ijtimoiy muhitdagi har bir inson psixologik ma'lumotlarni har xil internetdan, gazeta va jurnallardan, psixologik kitoblardan olishi mumkin.

Inson hayoti davomida psixik faoliyatlar har doim o'z ifodasini topadi va ko'rsatadi. Inson psixologiyasi, o'z taraqqiyoti va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yarolilikni, turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta'minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni ob'ektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari suradi. Boshqa sohalarda ham katta ahamiyatga egadir. Inson hayoti davomida psixik faoliyatlar har doim o'z ifodasini topadi va ko'rsatadi. Inson psixologiyasi, o'z taraqqiyoti va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yarolilikni, turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta'minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni ob'ektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari suradi. Va shu bilan bir qatorda odamlar psixologik faktlarga ko'proq qiziqib, ularni ko'rib, o'qib, o'rganib, borgan sari unda o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Agar odamlar psixologiyani o'rganar ekan, undagi psixik hayotni va boshqa kishilar psixikasini bila oladigan bo'lib qoladi.[3] Bu bilim esa boshqa kishilarni va o'zini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Psixologiyaning bilish, ma'lumot olish imkoniyati shundan iboratdir. Shu bilan birga psixologiya (jumladan, psixologiya metodlari) kishilar amaliy faoliyatining har xil turlarida - ta'lim-tarbiya, ishlab chiqarish, mehnat, tibbiyot, sud-huquqshunoslik, harbiy-mudofaa, san'at va boshqa sohalarda ham katta ahamiyatga egdir.[4] Olimlar psixologik xizmatni yanada rivojlantirish uchun turlicha metodlar va metodologiyalarni yaratib kelmoqdalar. K.K.Platonovning psixologik xizmat bilan bog'liq ijtimoiy psixologiya metodologiyasini yaratishdagi xizmati shundaki, ijtimoiy-psixologik individuallik muammosini inson individual olami namoyon bo'lishining eng yuqori darajasi sifatida tadqiq qildi va psixologik xizmat mohiyatini tasavvur qilish uchun muhim bo'lgan shaxsni nafaqat o'zining, balki bu individual xususiyatlarining ijtimoiy mazmuni o'zini-o'zi adekvat baholash va rivojlantirishga asoslangan shart-sharoitlarni yaratish bilan kamol toptirish muqarrarligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.[5] Professorlar E.G'oziyev, I.Tursunov, J.Ikromovlarning "XX asr va shaxs kamoloti" mavzusidagi ma'lumotlarida ham psixologik xizmat ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etuvchi individ, shaxs va sub'ekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga e'tibor berish zarurligi uqtiriladi:

-inson rivojlanishining determinatori hisoblangan asosiy omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omilari); -insonning o'ziga taalluqli, asosiy tafsilotlar, uning ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, e'tiqod bosqichlari barqarorlashuvi va involyutsiya;

-inson yaxlit tuzilishining asosiy tarkiblari ularning o'zaro aloqalari,shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati,taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi (Xalq ta'limi,NS). Darhaqiqat har bir insonning o'z individual olamida sodir etilayotgan barcha ma'naviy va ruhiy kechinmalarini u yashab urgan jamiyat istiqbollariiga mos tarzda tadqiq qilmay turib shaxs va faoliyat,shaxs va jamiyat,shaxs va individuallik o'rtaidagi ijtimoiy mutanosiblikni ta'minlab bo'lmaydi.Zero,psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilinayotgan ijtimoiy psixologik himoya falasafasi ham shuni taqozo etmoqda. Bolalar kattalar singari bir maromda rivojlanmaydi, shuningdek, ijobiy va salbiy psixologik xususiyalar, nisbatan barqaror va tinch osoyishta kechadigan davrlar mavjud. Kattalarga nisbatan xulq-atvoridagi ijobiy va salbiy munosabatning paydo bo'lishi, negativizm singari nohush xulq-atvor alomatlar o'z-o'zidan kelib chiqadigan bevosita jinsiy yetilish tufayli poydo bo'ladigan belgilar bo'lmay, balki ular bilvosita ta'sir ko'rsatadigan o'smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar vositasi orqali, uning tengdoshlari, turli jamoalardagi mavqei tufayli, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi o'rni munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o'zgartirish yo'li bilan o'smirlarning xulq-atvoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish mumkin. Ular tashqi ta'sirlarga va xissiyotlarga juda beriluvchan bo'ladilar. Shuningdek ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik kabi psixologik sifatlar ham xosdir. Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik o'smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo'ladi. Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning shuningdek, ustozlarning to'g'ri yo'lni ko'rsatishlariga qaramay o'z fikrlarini o'tkazishga harakat qiladilar. Juda ko'p o'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qoladilar. Bugungi kunda internet materiallarini tushunish yoki anglamasdan undan foydalanishga harakat qilishadi. Bu holatda chekuvchi, ichuvchi singari yangi rolda o'zini normal, qulay his qiladi.

Xulosa: Bugungi psixologik xizmatning qulay va shaxs kamoloti uchun nihoyatda ahamiyatli tomonlari barchaga ma'qul va manzur bo'lgan. Lekin psixologik xizmatning keng targ'ibot qilinishi uchun yuqoridan maxsus rasmiy farmoyishning va amaliyotchi psixologlarning nihoyatda taqchilligi yoppasiga barcha maktablarda xuddi shunday psixologik xizmatni tatbiq etish ishiga birmuncha to'sqinlik qilib kellar edi.1990-yillarga kelib mustaqillik, erk, o'zlikni anglash hislari hukmron bo'lgan O'zbekiston sharoitida inson va jamiyat kamolotini ko'zlovchi barcha ijtimoiy sohalar singari psixologik xizmat tatbiqining keng quloch yoyishi uchun ham o'ziga xos zamin hozirlandi. Bu esa O'zbekiston uchun xarakterli bo'lgan psixologik xizmat rivojlantirilishinning navbatdagi amaliyotchi-psixologlar tayyorlash bosqichiga o'tishni muqarrar qilib qo'ydi. Chunki maktabdagi ijtimoiy-psixologik iqlimni tahlil qila oluvchi malakali amaliyotchi-psixologlar tayyorlamay turib,O'zbekistonda psixologik xizmat tatbiqini muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmas ekan. Shunga muvofiq

dastavval Toshkentda, so'ngra Buxoroda, keyinchalik Navoiy, Andijon, Samarqand va boshqa viloyatlarda umumta'lim maktablari uchun "Amaliyotchi-psixologlar" mutaxassisligi bo'yicha qayta tayyorlov kurslari ochildi va bu kurslarni muvaffaqiyatli tugatganlar Respublikamizning talaygina maktablarida psixologik xizmat tashkilotchisi, targ'ibotchisi va tadqiqotchisi samarali ish olib bormoqdalar. Psixologik xizmat qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilsa, insonlarda uchraydigan turli ruhiy holatlar ham shunchalik oson korreksiya qilinadi. Insonlar o'z hayotida uchraydigan muammolarni bartaraf qilishni o'rganadilar.[6]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A Biznining bosh maqsadimiz-jamiatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: „O'zbekiston“, 2005. 96 - bet.
2. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. Uchebnik. - M. Aspekt Press, 1999. 376-bet.
3. G'oziyev E.G' Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007. 1-2-kitob.
4. G'oziyev E.G', Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T - 2002
5. G'oziyev E.G Muomala psixologiyasi. T-2001
6. Karimova V.M. Mustaqil fikrlash. - T. : Sharq. 2000. - 112-bet